



UDK: 00-004

Laziz GAFFAROV,

Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi, DSc “AKT kafedrası” dotsenti, PhD

E-mail: laziz.gaffarov@mail.ru

Toshkent mintaqaviy markaz professori, p.f.d N.Muslimov taqrizi asosida

IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN VOCATIONAL TRAINING THROUGH DIGITAL AND PEDAGOGICAL MANAGEMENT TOOLS

Annotation

This article analyzes modern approaches to improving the quality of education in vocational education institutions. The integration of digital tools, pedagogical methods, and management mechanisms enables sustainable development of education quality. Based on the experience of Uzbekistan and international standards, recommendations for enhancing education quality are proposed. The article highlights the effectiveness of educational process monitoring, the development of pedagogical competence, and the use of innovative technologies.

Key words: Vocational education, education quality, digital monitoring, pedagogical competence, management mechanisms, international experience.

РАЗВИТИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБУЧЕНИИ ПОСРЕДСТВОМ ЦИФРОВЫХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ИНСТРУМЕНТОВ

Аннотация

В данной статье анализируются современные подходы к повышению качества образования в профессиональных образовательных учреждениях. Интеграция цифровых инструментов, педагогических методов и управленческих механизмов позволяет устойчиво развивать качество обучения. На основе опыта Узбекистана и международных стандартов разработаны рекомендации по улучшению качества образования. Статья освещает эффективность мониторинга образовательного процесса, повышения педагогической компетентности и применения инновационных технологий.

Ключевые слова: Профессиональное образование, качество образования, цифровой мониторинг, педагогическая компетентность, управленческие механизмы, международный опыт.

KASBIY TA'LIMDA RAQAMLI VA PEDAGOGIK BOSHQARUV VOSITALARI ORQALI TA'LIM SIFATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Raqamli vositalar, pedagogik metodlar va boshqaruv mexanizmlari integratsiyalashgan holda ta'lim sifatini barqaror rivojlantirishga imkon beradi. O'zbekiston tajribasi va xalqaro standartlar asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola ta'lim sifatini monitoring qilish, pedagogik kompetensiyani oshirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini yoritadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy ta'lim, ta'lim sifati, raqamli monitoring, pedagogik kompetensiya, boshqaruv mexanizmlari, xalqaro tajriba.

Kirish. Kasbiy ta'lim muassasalari bugungi kunda milliy iqtisodiyot va jamiyatning barqaror rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Malakali kadrlar yetishtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlari, xizmat ko'rsatish sohalari va innovatsion faoliyatlar samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, ta'lim sifatining yetarli darajada emasligi o'quvchilarning ish bozorida raqobatbardoshligini pasaytiradi va mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimida so'nggi yillarda sezilarli islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, sifati oshirish masalasi hanz dolzarb bo'lib qolmoqda. O'quv dasturlarining eskirishi, pedagoglarning malaka darajasidagi farqliliklar, o'quv jarayonini tizimli monitoring qilishning yetishmasligi va raqamli vositalardan to'liq foydalanilmasligi asosiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli kasbiy ta'lim muassasalarida sifati barqaror oshirish uchun raqamli texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar va boshqaruv mexanizmlarini birlashtirgan integratsiyalashgan yondashuv zarur.


Maqolaning asosiy maqsadi kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, amaliy misollar orqali samarali strategiyalarni aniqlash va xalqaro tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shu bilan birga, maqola ilmiy yangilik jihatidan kasbiy ta'lim muassasalarida raqamli va boshqaruv vositalarini birlashtirib, ta'lim sifatini oshirishning kompleks modelini taklif qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda raqamli boshqaruvning ta'lim tizimidagi o'rni ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xalqaro manbalarda raqamli boshqaruv tizimlari ta'lim jarayonida “learning analytics”, “adaptive management”, “digital assessment”, “smart education ecosystem” kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchilar raqamli analytics vositalari yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasini aniqlash, pedagogik qarorlarni ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish va ta'lim jarayonini real vaqt rejimida boshqarish imkoniyatlarini alohida ta'kidlaydi.

Pedagogik boshqaruvga oid ilmiy adabiyotlarda esa o'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish, teskari aloqa mexanizmlarini boyitish va motivatsion muhitni shakllantirish bo'yicha didaktik yondashuvlar ilgari surilgan. Integrativ yondashuv-yani raqamli vositalar bilan an'anaviy pedagogik boshqaruvni uyg'unlashtirish-ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida ham ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Biroq kasbiy ta'lim bo'g'inida ushbu jarayonlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mutaxassislarni amaliyotga yo'naltirilgan kompetensiyalar asosida tayyorlash uchun raqamli vositalardan foydalanish nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki o'quv jarayonining amaliy yo'nalganligini kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Direktorlar va o'qituvchilarning kompetensiyasi pedagogik va boshqaruv qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Shu maqsadda malaka oshirish kurslari, treninglar va mentorlik dasturlari tashkil etiladi. Pedagogik monitoring o'quv jarayoni davomida o'quvchilar bilimini baholash va metodik yordam ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga yordam beradi.



Xorijiy tajribaning umumiy tavsifi

Mazkur komponentlar raqamli ta'lim muhitini shakllantirishda nafaqat texnologik, balki boshqaruv, ijtimoiy va pedagogik jihatlardan ham yondashishni talab qiladi. Ularni o'zaro integratsiyalash orqali kasbiy ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Respublikamizda so'nggi yillarda kasbiy ta'lim muassasalarida LMS tizimlari (masalan, Moodle, HEMIS va EMIS) joriy qilinmoqda. Biroq, bu jarayon hali ham izchil va tizimli tarzda yo'lga qo'yilmagan. Sifat monitoringi tizimi markazlashtirilmagan, ya'ni har bir muassasa o'zining ichki baholash mezonlariga tayanmoqda. Bu esa milliy darajada ta'lim sifatini barqaror tahlil qilishga to'sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, mavjud raqamli platformalardan foydalanish darajasi notekis bo'lib, bu holat hududlar, texnik ta'minot, o'qituvchilar malakasi va rahbarlarning yondashuvlariga qarab farqlanmoqda. Aksariyat ta'lim muassasalarida texnik infratuzilma yetarli bo'lmaganligi sababli, platformalar to'laqonli ishlamayapti yoki faqat rasmiy hujjat aylanishi darajasida qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari, AKT savodxonlik darajasi o'quvchilarda ham, ayrim o'qituvchilarda ham yetarli emas. Bu esa ta'limning raqamli shakllarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Raqamli kontentdan foydalanish, masofaviy darslarda qatnashish, onlayn testlar o'tkazish, portfoliolarni yuritish kabi zamonaviy metodlar hali keng ommalashmagan.

Yana bir muhim masala-tizimli fidebex mexanizmining yo'qligi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ikki tomonlama teskari aloqaning sustligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'plab platformalarda natijalarni real vaqt rejimida kuzatish, baholashga oid shikoyatlarni ko'rib chiqish

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning zamonaviy metodlarni o'rganishi va amaliyotda qo'llashi ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, rahbar kompetensiyasi muassasaning strategik rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Xalqaro tajriba va standartlar kasbiy ta'lim sifatini oshirishda muhim yo'riq bo'lib xizmat qiladi. European Quality Assurance in Vocational Education and Training tizimi ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish bo'yicha eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ISO standartlari ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimini mukammallashtirishga yordam beradi.

Germaniya tajribasi amaliyotga asoslangan o'quv dasturlari va sanoat bilan integratsiyalashgan ta'limni o'z ichiga oladi. O'quvchilar ish sharoitida mashg'ulotlarni bajarish orqali amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Finlyandiya tajribasida pedagoglar va direktorlar doimiy malaka oshirish kurslarida qatnashadi, pedagogik monitoring tizimi kuchli va samarali ishlaydi.

yoki avtomatlashtirilgan tavsiyalar berish imkoniyatlari cheklangan.

O'zbekiston sharoitida ushbu tajriba o'quv dasturlarini amaliyotga moslashtirish, raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish va pedagogik hamda boshqaruv kompetensiyasini oshirish orqali moslashtirilishi mumkin.

O'zbekiston kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha bir qancha pilot loyihalar amalga oshirilgan. Raqamli platformalar orqali o'quv jarayoni real vaqtda monitoring qilinadi, o'quvchilarning natijalari va kompetensiyalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, simulyatsion laboratoriyalar texnik va sanoat kasblarida o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash imkonini beradi.

Malaka oshirish kurslari orqali direktor va o'qituvchilar yangi pedagogik va boshqaruv metodlarini o'rganadi. Bu kurslar interaktiv metodlar, loyiha asosida o'qitish, raqamli vositalardan foydalanish va pedagogik monitoringni o'z ichiga oladi.

Germaniya va Finlyandiya tajribalari o'zining samarali pedagogik va boshqaruv yondashuvlari bilan ajralib turadi. Germaniyada o'quv dasturlari sanoat korxonalarini bilan integratsiyalashgan va o'quvchilar real ish sharoitida amaliy mashg'ulotlarni bajaradi. Finlyandiya tajribasida esa pedagoglar va direktorlar doimiy malaka oshirish kurslarida ishtirok etadi, pedagogik monitoring tizimi esa ta'lim sifatini doimiy oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida ushbu tajriba quyidagicha moslashtirilishi mumkin: o'quv dasturlarini amaliyotga moslashtirish, raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish va pedagogik hamda boshqaruv malakasini oshirish.

Tahlil va natijalar. Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar, pedagogik yondashuvlar va

boshqaruv mexanizmlarini birlashtirgan integratsiyalashgan yondashuv ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. O'quvchilarning amaliy ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalari yaxshilanadi, ishga joylashish darajasi oshadi, va pedagoglar metodik savodxonligi kuchayadi.

Monitoring tizimi yordamida o'quv jarayoni davomida muammolar aniqlanadi va tezkor choralar ko'riladi. Shu orqali ta'lim sifatining barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Yuqoridagi holatlar shuni ko'rsatadiki, Respublikamizda raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish uchun bir qator tizimli yondashuvlarni amalga oshirish zarur. Jumladan:

LMS tizimlarini yagona standart asosida joriy qilish;

Hududlar va muassasalar o'rtasidagi raqamli tafovutlarni kamaytirish;

O'qituvchilar va o'quvchilarning AKT kompetensiyalarini oshirish bo'yicha tizimli o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish;

Ta'lim sifatini baholashning markazlashtirilgan monitoring tizimini ishlab chiqish;

Fidbek va tahliliy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish tizimini joriy qilish lozim.

Xulosa va takliflar. Xorijiy ilg'or tajribalarni tizimli o'rganish va tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim sifatini raqamli muhitda samarali boshqarish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytiriladi. Ushbu xalqaro amaliyotlar asosida ishlab chiqilgan milliy model, o'z navbatida, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini kompleks tarzda qamrab olgan tizimlilik tamoyiliga asoslanadi. Modelda o'quv jarayonini doimiy va real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi mexanizmlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) boshqaruv

jarayonlariga to'liq integratsiya qilish hamda ota-ona, jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlarni ta'lim sifatini oshirishga jalb etish kabi asosiy komponentlar mujassamdir.

Taklif etilgan model raqamli transformatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirishda hamda kasbiy ta'lim muassasalarida sifatini doimiy ravishda oshirish va ta'minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Model yordamida nafaqat ta'lim jarayonlari samaradorligi oshadi, balki raqamli texnologiyalar orqali boshqaruvning shaffofligi va ishonchliligi ham ta'minlanadi. Bu esa, o'z navbatida, kasbiy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

Raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish va ularni pedagogik jarayon bilan integratsiyalash.

Pedagogik va boshqaruv kompetensiyasini oshirish uchun malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish.

O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimida xalqaro standartlar va tajribalarni uyg'unlashtirish.

O'quv dasturlarini amaliyotga moslashtirish va interaktiv, loyiha asosida o'qitish metodlarini keng qo'llash.

Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash orqali barqaror va sifatli ta'limni ta'minlash.

Shu yo'l bilan raqamli, pedagogik va boshqaruv mexanizmlarini birlashtirgan kompleks yondashuv kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini barqaror oshirishga imkon yaratadi va mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni-“Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida.”
2. Shevchuk, E. V., & Shpak, A. V. (2023). Digital transformation of quality management of educational business processes. *RUDN Journal of Informatization in Education*, 20(2), 159-175.
3. Gaffarov L.X. i dr. Malaka Oshirish Ta'lim Tizimida Islohotlar: Innovatsion G'oyalar //Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 5. – S. 43-49.
4. Jo'raqulov, U. Ta'lim menejmenti va raqamli texnologiyalar integratsiyasi.-T.: [Nashriyat], 2023. — 122 b.
5. Muslimov N.A. O'quvchilar mustaqil ta'lim jarayonida dasturiy didaktik majmuaning o'rni va ahamiyati // «Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'». – Nukus, 2019. – № 6. – 48-52 b.
6. Husanov, B. (2019). Kasbiy ta'limda raqamli texnologiyalar integratsiyasi va boshqaruv jarayonlarining takomillashtirilishi. *Oliy ta'lim muammolari*, 3(2), 45–52.
7. Rizayev, R., & Axmedova, M. (2021). Ta'lim jarayonida raqamli boshqaruvning ilmiy-amaliy asoslari. *Ta'lim va innovatsiya*, 4(1), 88–97.
8. Bozorov, A. (2020). Pedagogik monitoring va raqamli nazoratning ta'lim sifatiga ta'siri. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali*, 2(3), 67–74.
9. Yo'ldosheva, N. (2023). Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning kasbiy ta'limdagi roli. *Innovatsion ta'lim*, 6(2), 40–49.